

HUQUQ FANIGA KIRISH

Makoto Ito

O'quv qo'llanma

The Guide to study Law

by Makoto Itoh



A.M.Xakimov., A.I.Umirdinov tarjimasi

HUQUQ FANIGA KIRISH

Makoto Ito
O'quv qo'llanma

The Guide to study
Law
by Makoto Itoh

O'quv qo'llanma Toshkent davlat yuridik universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2019-yil 17-oktabrdagi 1-sonli majlis bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

UO'K: 34 (075.8) (575.1)

KBK 67.4ya72

Huquq faniga kirish. O'quv qo'llanma. /Makoto Ito,

A.M.Xakimov., A.I.Umirdinov tarjimai – Toshkent:

Lesson Press nashriyoti, 2019 – 248 bet

Mas'ul muharrirlar:

X.R.Ochilov – Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

J.N.Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat huquqi va boshqaruvi" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlari doktori

Taqrizchilar:

Sh.A.Saydullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida mudiri, professor

D.Sh.Umarxonova – Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlari doktori.

N.E.Gafurova – Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellectual mulk huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Ushbu kitob Yaponiyaning Aichi viloyati Inuyama shahrida joylashgan Nagoya iqtisodiyot universiteti tomonidan ajratilgan ilm-fanni rivojlantirishga oid "O'rta Osiyo va Mo'g'uliston bo'yicha qiyosiy huquq sohasidagi ta'lim va taraqqiyot granti" asosida chop etildi.

Ushbu kitobni chop etishda hamkorlik qilgani uchun Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasiga alohida minnatdorchilik bildiriladi.

ISBN 978-9943-6260-7-2

© Makoto Ito, 2019

© Lesson press nashriyoti, 2019

KIRISH SO‘ZI

Ta’lim – har qanday davlat taraqqiyotining asosiy poydevori hisoblanadi. Samarali va zamonaviy ta’lim tizimisiz hech bir mamlakat rivojlana olmaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishi – kadrlar tayyorlash hamda ta’lim sohasida olib borilayotgan yangilanishlardir.

Ushbu yo‘nalishdagi islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad – mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishishda ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish, implementatsiya qilish hamda hamkorlik olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab birinchilar qatorida ta’lim sohasida Yaponiya davlati bilan yaqindan samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

Alohida qayd etish joizki, Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadigan “Yapon huquqini tadqiq qilish markazi” 2005-yildan buyon Toshkent davlat yuridik universitetida o‘z faoliyatini yuritib keladi.

Shu davr mobayonida ushbu markazni 60 nafarga yaqin huquqshunos talabalar muvaffaqiyatli bitirib, 30 nafarga yaqini Nagoya universiteti magistratura bosqichini tamomladi hamda magistr darajasiga ega bo‘lishdi.

Ushbu olib borilayotgan hamkorlik aloqalarining sifat darajasini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biridir. Yaponiyaning huquqshunos kadrlarni tayyorlashdagi ilg‘or tajribalarini

implementatsiya qilish uchun, avvalo, ular tomonidan yaratilgan o'quv, ilmiy nashrlarini o'rganish, tinglovchilarga yetkazish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, Toshkent davlat yuridik universiteti hamda Yaponiyaning Nagoya iqtisodiyot universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan hamkorlikda tarjima qilingan professor Makoto Itoning "Huquq faniga kirish" nomli o'quv qo'llanmasining yuqorida ta'kidlangan maqsadlarga erishishdagi roli va ahamiyati beqiyos.

Huquqning murakkab fenomeni hamda ko'plab masalalarning huquqiy muammolar bilan bog'liqligi huquqni qo'llash va tushunish oddiy, oson vazifa emasligini anglatadi.

Professor Makoto Ito o'zining ushbu asarida huquqshunoslik sohasiga endigina kirib kelayotgan shaxslar uchun huquqni tushunish va qo'llash bilan bog'liq fundamental tushuncha va atamalarni tushunarli, oddiy tilda va aniq misollar bilan ochib berishga harakat qilgani, shuningdek, huquq sohalari va huquqshunoslikka oid ma'lumotlarni tinglovchiga oson yetib boradigan tarzda bayon etgani diqqatga sazovordir. Mazkur "Huquq faniga kirish" kitobi ham mamlakatimizda yuqori bilimga ega bo'lgan, adolat va qonun ustuvorligini eng yuqori o'ringa qo'yuvchi yuridik kadrlarni tayyorlashda yaqindan xizmat qilishiga ishonamiz.

Shu sababli, ushbu kitob muallifi professor Makoto Ito janoblariga mazkur qimmatli kitobni o'zbek tiliga tarjima qilib chop etilishiga yaqindan yordam bergani uchun, shuningdek, mazkur kitobni chop etishda ko'rsatgan amaliy ko'magi uchun Nagoya iqtisodiyot universitetiga ham o'z tashakkurimizni izhor etamiz.

Umid qilamizki, ushbu yo'nalishdagi hamkorligimiz davom etib o'zbek hamda yapon olimlarining qator boshqa huquqshunoslik sohasidagi qator boshqa adabiyotlarini hamkorlikda tarjima qilish hamda o'quvchilarga yetkazish kabi muhim vazifalarni birgalikda davom ettiramiz.

Ushbu kitobning o'zbek tiliga tarjima qilinishi va o'zbek

kitobxonlari e'tiboriga havola etilishi O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida ta'lim sohasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raxim Rasuljonovich Xakimov

O'zbekiston Respublikasi

Adliya vaziri o'rinbosari,

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori,

yuridik fanlar doktori

Yapon tilida (日本語訳) はじめに

教育は国家の発展の基盤をなす。この基盤なくして、国家の繁栄は達成され得ない。

現在、ウズベキスタンにおいて行われている改革の根底にも、教育分野の改善が不可欠であるという考えがある。

無論、上記の改革を成し遂げるために、海外の経験を学ぶ必要があることは言うまでもない。ウズベキスタンも独立後、教育分野において日本に人材育成の面で協力を仰いできた。とりわけ、2005年に、中央アジアで唯一の日本法教育研究センターがタシケント国立法科大学内に設置され、多くの優秀な人材を輩出してきていることは注目に値する。既に約60名の修了生を送り出し、そのうちの約30名は名古屋大学大学院において修士号を取得している。

日本との教育分野における協力を一段と強化することは、今日のウズベキスタンにおける重要課題の一つとも言える。日本の法学教育に関する優れた実践例を導入するため、まずは、日本の法学者によって著された優れた文献から多くを学ぶ必要がある。

タシケント国立法科大学と名古屋経済大学の教員の協力

によって翻訳された伊藤真氏のこの『法学入門』は、ウズベキスタンにおける今後の法学教育において大きな役割を担うことが期待される。法とは社会の様々な現象を含んでいる。社会を理解するのが容易ではないのと同様、法を理解するという行為もまた大きな困難を伴うものである。しかし、筆者は、法の基本的な概念や用語をわかりやすく取り上げることに意を注いでいる。また、様々な身近な例を挙げながら、読者の法意識を高めようとしている点も大きな特徴である。本書は、正義と法の支配の下におけるウズベキスタンの法律家たちの必読書となるだろう。

この貴重な本のウズベク語への翻訳を許可してくださった伊藤真氏に、タシケント国立法科大学を代表して心からの感謝を申し上げます。さらに、出版にあたり様々な形で支援してくださった名古屋経済大学にもこの場を借りて深く御礼申し上げます。

この翻訳書が、ウズベキスタンと日本の間の人材育成面での交流を更に促進することを心から願っています。

ウズベキスタン共和国司法副大臣・タシケント国立法科大学学長、ハキモフ・ラヒム博士(**Rakhim Khakimov**)

Tarjimonlardan o‘zbek kitobxonlariga “Huquq faniga kirish” kitobi haqida

Xorijiy mamlakatlardan ilmning o‘zlashtirilishi turli usullar bilan amalga oshiriladi. Bulardan eng samaralisi esa shubhasiz – ilm-fanga oid asarlarni tarjima qilish. Biz tomonimizdan ushbu kitobning tarjima qilinishiga ham bir qancha sabablar mavjud. Ulardan biri ikkimiz ham yurtimizning eng nufuzli huquqshunoslik dargohi Toshkent davlat yuridik universitetida tahsil olganimiz va bu yerdagi talabalarga o‘zbek tilida xorijlik olimlarning huquq bo‘yicha qarashlarini ulashishni xohlaganimiz bo‘lsa, ikkinchisi Yaponiyaning Nagoya universitetida yapon tilida yapon huquqiy tizimini o‘rganganligimizdir. Ikkimiz ham Xalqaro huquq va Xalqaro xususiy huquq kabi ichki huquqdan farqli huquq sohalari bo‘yicha tahsil olgan bo‘lsa-da, nafaqat Yaponiya, balki dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ichki huquq haqida yozilgan va nashr etilgan kitoblarning ulkan xazinasidan yosh vatandosh talabalarimizni bahramand qilish borasidagi qarashimiz yakdil bo‘lgan. Toshkent davlat yuridik universitetidan shu paytgacha xorijiy mamlakatlarga bir necha o‘nlab yurtdoshlarimiz o‘qishga ketganlariga qaramay, hali birorta Yapon tilidagi huquqshunoslik kitobi ona tilimizga to‘liq tarjima etilmagani bizni bu ishni albatta amalga oshirishga undadi. Tabiiyki, tinib-tinchimas yapon olimlari tomonidan ko‘z o‘ngimizda yiliga tarjima qilinayotgan yuzlab, minglab tarjimalarning o‘ziga xos ta‘siri bo‘lganini ham e’tirof etish zarur.

Uzoq bo‘lmasa-da, bir qancha muddat izlanish va fikr almashishlardan keyin, Yaponiya universitetlarining birinchi kurslarida sevib o‘qiladigan “Huquq faniga kirish” kitoblari seriyasidan boshlashga qaror qildik. Yaponiyalik mashhur huquqshunos Makoto Ito janoblari tomonidan yozilgani

ushbu “Huquq faniga kirish” kitobi sodda tilda yozilgai hamda huquqning mohiyatini ochib berishga urinilgani bilan ham o’zgachadir. Bundan tashqari, ushbu kitobda sizni mulohaza qilishga chaqiradigan; adolat, huquqiy barqarorlik, qonun ustuvorligi kabi asosiy tamoyillarni anglab yetishingizga ko’mak beradigan bir qancha amaliy misollar keltirilgan. Shuningdek, huquqni o’rganish jarayonida qanday ko’nikmalarni o’zlashtirishingiz lozim ekanligi borasida muallifning tavsiyalari ham mavjud.

Bu kitobni tarjima qilish jarayoni taxminan bir yil davom etdi. Shunday bo’lsa-da, bu kitob juda ham sodda tilda yozilgani va yapon tilining grammatik tuzilishi o’zbek tiliga juda ham yaqin bo’lgani sababli, kitobni tarjima qilish juda katta murakkabliklar tug’dirdi deb ayta olmaymiz. Kitobni tarjima qilish jarayonida asosiy qiyinchilik tug’dirgan holatlardan biri bu – yapon tilidagi “Hou (法 – o’zbek tiliga huquq yoki qonun deb tarjima qilinadi)” so’zini huquq yoki qonun deb tarjima qilish masalasi bo’ldi. Uning o’zbek tiliga huquq yoki qonun deb tarjima qilinishini esa faqatgina kitobdagi matnni qunt bilan o’qish orqali aniqlash mumkin edi.

Qo’lingizdagi Makoto Itoning “Huquq faniga kirish” kitobi sizga nafaqat huquqning mohiyatini tushunib yetishda, balki qiyosiy huquq olamiga kirib kelishingizda ham katta yordam berishiga ishonamiz. Yaponiya huquqi ko’plab jihatlar bilan bizning qonunchiligimizga yaqin bo’lsada, ushbu kitobni o’qish orqali bir qancha ko’zga ko’rinadigan farqlarni ham tushunib yetasiz. Ayniqsa, pretsedentlar hamda sud tizimi haqidagi boblarni milliy qonunchiligimiz bilan taqqoslagan holda o’qishingizni maslahat beramiz. Shuningdek, mazkur kitobda bir qancha yangi huquqiy mexanizmlarni ham uchratishingiz mumkin. Ularni milliy huquqiy tizimimizda joriy etish haqida ham fikrlab ko’rsangiz foydadan holi bo’lmaydi.

Albatta, ushbu kitobning tarjimasini butunlay xatolardan holi va mukammal deyishdan yiroqmiz. Hozirga qadar chet tilidagi huquqshunoslik kitoblari ona tilimizga ko’plab

tarjima etilmagani va bizning ham bu borada hali tajribasiz ekanligimizni inobatga olasiz degan umiddamiz. Shu bilan birga, kitobni o'qish jarayonida sizga tushunishga qiyin bo'lgan jumalarga yoki atamalarga duch kelsangiz, quyidagi pochta manzillariga murojaat qilishingizni so'raymiz:

ahadjon77hakimov@gmail.com

aumirdinov7@gmail.com

Janob Makoto Ito tomonidan boshqa huquq sohalariga kirish bo'yicha ham yetita kitob chop etilgan. Ular Konstitutsiyaviy huquq, Ma'muriy huquq, Fuqarolik huquqi, Fuqarolik protsessual huquqi, Jinoyat huquqi, Jinoyat protsessual huquqi, va Korporativ huquqqa kirish kitoblaridir. Kelakajda huquqshunoslikka qiziquvchilar uchun qolgan yetti kitobni ham tarjima qilish istagimiz yo'q emas. Umid qilamizki, qo'lingizdagi kitob talabalar, universitet professor-oqituvchilari, shuningdek, huquq sohasiga qiziquvchi har qanday yurtdoshimiz uchun qiyosiy huquq bo'yicha o'z bilimlarini yanada oshirishda foydasi tegadi.

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi – **A.M.Xakimov**

Nagoya iqtisodiyot universiteti professori – **A.I.Umirdinov**



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/4387> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/4387> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/4387>